

IMOM BUXORIYNING ISLOM DUNYOSIDA TUTGAN O'RNI

Rahmonova Dilnoza

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi
muslimarahmonova371@gmail.com
+998909607261*

Annotatsiya.

Ushubu maqolada hadis ilmining peshvosi, islom dunyoda o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning hadis ilmdagi mo'tabar o'rinlari va u zotning "Al-jome' as-Sahih" kitoblarini tasnif etishdagi sabablar va holatlar yoritib berishga harakat qilingan.

Muso ibn Horun Hammol bu buyuk zot haqlarida shunday deb yozadilar: "Menimcha, Islom ahlining barchasi jamlanib, Muhammad ibn Ismoilga o'xshash yana bir kishini yetishtirmoqchi bo'lishsa, buni eplay olishmaydi".

Kalit so'zlar:

Imom Buxoriy, "Sahih Buxoriy", "Qazoyo as-sahobati vat-tobein va aqoviluhum", "Tarix", Is'hoq ibn Roxavaynikida, hadis.

Har bir musulmon kishi ikki dunyo saodatiga ega bo'lishi uchun, avvalo, Yaratganni tanimog'i, ya'ni hech qanday sherigi bo'lmagan tanho Alloh subhonahu va taologa iymon keltirmog'i hamda Muhammad sollallohu alayhi vasallam Uning so'nggi rosuli ekanligini tan olmog'i farz bo'lganidek, har bir mo'min to'g'ri yo'lda sobitqadam bo'lishi uchun butun hayoti davomida Alloh taoloning Kalomini hamda Uning elchisi Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini mahkam ushlamog'i lozimdir. Chunki Rosulullohning o'zlari bir hadislarida: "Men sizlarga ikki narsani tashlab ketmoqdamanki, agar sizlar mendan keyin u ikkisini mahkam ushlasangizlar, hargiz adashmaysizlar. Bu Allohning Kitobi va mening sunnatimdir", - deb marhamat qilganlar.

Alloh taoloning elchisidan biz ummatlariga bebaho meros bo'lib qolgan bu ikki buyuk ne'matni ko'z qorachig'idek asrash, ularni o'qib-anglab, ko'rsatmalariga amal qilish har birimizning zimmamizdagi ilohiy vazifa - mas'uliyat bo'lishi bilan



birga bizlarning jamiki dunyoni qoplab olgan jaholat zulmatlarida adashib qolmasdan, halokat ko'chalariga kirib ketmasdan najot topishimiz uchun Ilohiy kafolat hamdir.²⁹

Bu borada Shayx Alouddin Mansurning shunday so'zlari mavjud: "Ma'lumki, dini islomning asosiy manbai bo'lgan Qur'on na hadisning avvalgisi, ya'ni Qur'oni Karimning har bir oyati Alloh taolo huzuridan Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga qanday nozil qilingan bo'lsa, o'sha holda bir harfiga ham ziyon etmasdan, o'zgarmasdan qo'limizda turibdi va in Shaa Alloh, to Qiyomat shunday holda qoladi. Chunki Yaratganning O'zi: "Albatta, ushbu Eslatmani (ya'ni, Qur'onni) Biz o'zimiz nozil qildik va shubhasiz, O'zimiz uni saqlaguvchidirmiz" (Hijr surasi, 9-oyat), - deb bu xususda biz bandalarini xotirjam qilib qo'ygandir."

Darhaqiqat, hadis bu Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning aytgan so'zlari va qilgan amallari bo'lib, u haqida kelgan rivoyatlar esa, behad ko'pdir. Ularning orasidan sahobayi kiromlar, tobeiylar hamda eng ishonchli roviylar tomonidan o'ta omonatdorlik bilan yetkazilgan hadislargina sahih, ya'ni to'g'ri-ishonchli deb tan olingan. "Sahihi Buxoriy" ana o'sha sahih hadis to'plamlarining eng ishonchlisi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy rohmatullohi alayhning to'plagan har bitta hadislari haqiqatdan ham Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari ekanligiga hech qanday shubha-gumon yo'qdir.

Hatto, ulamolar: "Sahihi Buxoriy" Allohning Kalomi bo'lmish Qur'ondan keyingi eng to'g'ri kitobdir", deb baho berganlar. Shuning uchun biz musulmonlar muhaddislarning imom peshvolari bo'lgan mazkur buyuk olimning "Sahihi"ga kiritgan hadislarni kamoli orom va qanoat bilan: "Bu aniq Payg'ambar

²⁹ Muhammad Fuod Abdulboqiy, "Marvarid marjonlar – Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan muttafaqun alayh hadislar". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2020. – B 3-4.

alayhissalomning aytgan soʻzlari, qilgan amallari, ya'ni bizlarga qoldirgan sunnatlari”, degan aniq ishonch bilan o'qib-o'rganishimiz lozimdir.

Abu Bakr Kalvazoniy u zot haqlarida shunday deydilar: “Hadis yodlashda Muhammad ibn Ismoilga teng keladiganini ko'rmadim. Chunki u kishi kitobni qo'lga olib, bir qarab chiqishining o'zidayoq undagi hadislarni boshidan oxirigacha yodlab ulgurar edi.”

“Agar keyingilarda Imom Buxoriyni maqtash eshiklari ochiladigan bo'lsa, uning madhiga qog'ozlar yetmay, nafaslar toqat qila olmay qolur. Zero, u bamisoli sohili bo'lmagan dengiz erur”, deydi Hofiz ibn Hajar Asqaloniy.

Butun islom dunyosida ma'lum-mashxur bo'lgan, Qur'oni Karimdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi “Al-jome'-us-Sahih” kitobining yozilish tarixi barchamizga qiziq, albatta. Bu borada quyidagicha rivoyat keladi:

Bir kuni Imom Buxoriyning shogirdlaridan biri bo'lgan Ibn Abu Hotim u zotga shunday savol berib:

- Ustoz, ushbu “Sahih”ni yozishga sizni kim ruhlantirgani haqida har xil so'zlar eshitdim. Birov Roxavayh hazratlarining tavsiyalari bilan kirishganingizni aytadi. Boshqasi tushingizda ayon bo'lganini gapiradi. Aslida o'zi nima sabab bo'lgan, ustoz? , dedi.

Imom Buxoriy shogirdining gapini tushunmaganday, unga biroz tikilib qoldilar. Keyin yuzlariga ozgina tabassum paydo bo'lib, bu savol o'zlarining shirin xotiralarini ham junbishga keltirib yubordi shekilli, qo'lidagi qog'ozlarni bir chetga surib, hikoya qilishga tushdilar:

- Bir kuni Is'hoq ibn Roxavaynikida edik. Ustoz bizga hadis so'zlayotgan edilar. Shunda as'hoblarimizga qarata: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari bo'yicha muxtasar bir kitob jamlasalarigiz-chi!” deb qoldilar. Bu gap

qalbinga mahkam o'rnashib, tinchlik bermay qo'ydi. Yotsam ham, tursam ham, hatto dars berish chog'ida ham bu gap miyamdan chiqmadi. Payg'ambar alayhissalomning hadislarini jamlash, ularning sahih va nosahihini ajratish, tahqiq qilish mening azaliy orzuyim, hayotimning bosh maqsadi edi. Bu yoqda ustoz bugungiday rag'batlantirib turibdilar. Endi istihola, taraddud, ikkilanishlarga o'rin qolmagan edi. Bu ishning naqadar mashaqqatli, keng ko'lamli, kuchli iroda va qattiq mehnat talab qilishini yaxshi anglab tursam-da, qat'iy azmu jazm bilan belni mahkam bog'ladim. Ustozning fotihalarini oldim. Allohdan tavfiq berishini va oson qilishini so'rab, shu kitobni jamlashni boshladim. O'sha majlisdan keyin ko'p o'tmay Nabiyyi sallallohu alayhi vasallamni tushimda ko'rdim. Men u zotning oldilarida turib, qo'limdagi yelpig'ich bilan Payg'ambar alayhissalomni yelpib turgan ekanman. Ertasiga ba'zi ta'burchilarga tushimni aytsam, "Sen u zotdan yolg'onlarni chetlatar ekansan", deyishdi. Mana shu narsa ham "Sahih"ni tezroq qog'ozga tushirishga o'ziga xos bir turtki bo'ldi, dedilar.

"Solih tushlar nubuvvatning qirqdan bir ulushidir, deyishgan. Bir paytlar ulug' olimlarimizdan Muhammad ibn Yusuf Firabriy men haqimda ko'rgan tushlarini so'zlab bergan edilar: "Bir kuni Rosululloh sallallohu alayhi vasallamni tush ko'ribman. U kishi: "Qayerga ketyapsan?" deb so'radilar. Men: "Muhammad ibn Ismoilning huzuriga", deb javob bersam: "Unday bo'lsa, mendan salom aytib qo'y", dedilar. Boshqa bir kuni yana Rosululloh alayhissalomni tush ko'ribman. U zot menga: "Qachongacha fiqh o'qiysan? Mening kitobimni o'qisang bo'lmaydimi?" dedilar. Men: "Sizning kitobingiz qaysi?" deb so'ragan edim, "Muhammad ibn Ismoilning kitoblari mening kitobimdir", dedilar. Bir kuni esa o'zingiz tushimga kirdingiz. Nabiyyi alayhissalomning ortlaridan yurib ketayotgan ekansiz. Rosululloh alayhissalom muborak qadamlarini ko'targanlarida izlariga siz oyoqlaringizni

qo'yar edingiz". "Al-ulamau va rasatul-anbiyai"³⁰ degan hadisga ko'ra, bu ishoralar bejiz bo'lmaganini o'shandayoq anglagan edim."³¹

Imom Buxoriy avvaliga, ushbu kitoblarini Buxoroda boshlab qo'yganlar. Uning asosiy qismini Masjidul-Haromda yozganlar. Imom Buxoriy g'usl qilib, ikki rakat namoz o'qib, istixora qilmay turib unga birorta ham hadis yozmasdilar. Unga faqat muhaddislar sahih ekaniga ittifoq qilganlarinigina kiritdilar. Shunisi qiziqki, u zot bu kitobni uch marotoba tasnif etdilar. Keyin Madinai munavvarada Rosululloh sollolohu alayhi vasallamning ravzalari bilan minbarlari orasida o'tirib, kitobni boblarga ajratib, tasnif qildilar. U zot zehnlari faqat shu ishga sarflardilar, har bir hadisni amal bilan yod olardilar, yozgan har bir hadislariga amal qilardilar. Buni hijriy 238-yilda yozib tugatdilar. Ularning olti ming chamasidagi hadislardan ajratib oldilar va uni o'n olti yil mobaynida jamladilar. Imom Buxoriy bungacha ham ikita kitob yozganlar. O'n sakkiz yoshlariga yetganlarida "Qazoyo as-sahobati vat-tobein va aqoviluhum" ("Sahoba va tobeinlarning vatvolari va aytgan so'zlari" kitobini yoza boshlaganlar. Bu Ubaydulloh ibn Muso davrlarida edi. "Tarix" kitoblarini ham o'sha paytlarda oydin kechalarda Payg'ambarimiz sollolohu alayhi vasallamning ravzalari yonida yozdilar.

Buxoriyning o'zlari aniq hisoblab, "Men hadislarni bir ming sakson muhaddisidan yozib oldim" deganlar. U bulardan tashqari yana son-sanoqsiz shayxlar bilan muloqotda bo'lib, hadis tinglab, yod olganlar. Ammo ba'zi jihatlardan ishonchli bo'lishmagani bois, ularni ustozlari ro'yxatiga kiritmadi. Imom Buxoriy ustoz tanlashda ularning yoshi yoki mavqeyiga emas, asosan odilligi, zobti, rivoyatining beshubha, tozaligi va e'tiqodining sog'lomligiga e'tibor berar edilar.

³⁰ "Ulamolar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir".

³¹ Ahmad Muhammad Tursun, "Sohilsiz dengiz Imom Buxoriyning hayot sahifalari". "Hilol-Nashr" nashriyoti. Toshkent 2021. – B 116-117.



Imom Buxoriyning sahih hadislar to‘plami asli arab tilida bitilgan, keyinchalik ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan hamda qayta va qayta nashr etilgan. Ularning eng ko‘p tarqalgan tarjimalari ingliz tilida bo‘lib, aksariyati Buyuk Britaniya kutubxonalarida saqlanadi. Imom Buxoriyning o‘zi haqidagi asarlar ham turli tillarda bitilgan bo‘lsa-da, ularning eng ommalashganlari ingliz tilidadir. Islom dini keng yoyilgan Indoneziya, Malayziya, Bangladesh, Pokiston, Nigeriya, ba’zi arab davlatlari va qisman Hindistonda ingliz tilining rasmiy va ilm-fan tili sifatidagi maqomi buning sabablaridan biri bo‘lishi mumkin. Shu bois, Imom Buxoriy haqida ma’lumot beruvchi manbalar ichida ingliz tilida yozilgan yoki mahalliy tillardan ingliz tiliga tarjima qilinganlari salmoqli o‘rin egallaydi.³²

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1992-yilning aprel oyida Saudiya Arabistonga tashrif buyurganda podshoh Fahd ibn Abdul Aziz al-Saud hazrati oliylari kamoli ehtirom ifodasi sifatida Prezidentimizga Ka’batullohga yopiladigan ka’bapushning katta bir bo‘lagini hadya qilgan edi. Prezidentimiz I.Karimov ushbu ka'bapushni lutfan Al-Buxoriy maqbarasi majmuyiga sovg'a qildilar.³³ Bu Imom al-Buxoriydek islom tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk olimga bo‘lgan xurmat-e’tiborning yorqin nishonasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Fuod Abdulboqiy, “Marvarid marjonlar – Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan muttafaqun alayh hadislar”. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2020. – B 558.
2. Ahmad Muhammad Tursun, “Sohilsiz dengiz Imom Buxoriyning hayot sahifalari”. “Hilol-Nashr” nashriyoti. Toshkent 2021. – B 256.
3. <https://iiau.uz/oz/news/1674>
4. <https://meros.uz/object/imom-al-buxoriy-majmuasi>

³² <https://iiau.uz/oz/news/1674>

³³ <https://meros.uz/object/imom-al-buxoriy-majmuasi>